“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining genezisi, shakllanishi va evolyutsiyasi

Ulug‘murat Ernazarov,
Demokratiya va inson huquqlari instituti huzuridagi Hakamlik sudi raisi,
professional mediator
e-mail: u.ernazarov64@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining genezisi, shakllanishi va evolyutsiyasi kompleks huquqiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Ushbu institutning vujudga kelish omillari, tarixiy-huquqiy rivojlanish bosqichlari hamda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilishning huquqiy asoslari, qo‘llash shartlari va tartiblari, mazkur choralarning huquqni muhofaza qiluvchi va ekologik funksiyalari o‘rganiladi. Milliy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinib, tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan tegishli ilmiy-nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqiladi.

Калит сўзлар. tabiiy resurslar, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, huquqni cheklash, huquqni to‘xtatib turish, huquqni bekor qilish, ekologik huquq, tabiatdan foydalanish, huquqiy institut

Аннотация. В статье комплексно исследуются генезис, становление и эволюция института ограничения, приостановления и прекращения права пользования природными ресурсами. Анализируются факторы возникновения данного института, основные этапы его историко-правового развития, а также его значение в обеспечении рационального и эффективного использования природных ресурсов. Особое внимание уделяется правовым основаниям, условиям и порядку ограничения, приостановления и прекращения права пользования природными ресурсами, а также правоохранительной и экологической функциям указанных мер. В сравнительно-правовом аспекте рассматриваются тенденции развития национального законодательства и опыт зарубежных государств. На основе проведённого исследования формулируются научно-теоретические выводы и предложения, направленные на совершенствование правового регулирования, обеспечение экологической безопасности и защиту прав и законных интересов пользователей природных ресурсов.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. природные ресурсы, право пользования природными ресурсами, ограничение права, приостановление права, прекращение права, экологическое право, природопользование, правовой институт

Annotation. This article provides a comprehensive legal study of the genesis, formation and evolution of the institution of restricting, suspending and terminating the right to use natural resources. It examines the factors underlying the emergence of this institution, the main stages of its historical and legal development, and its role in ensuring the rational and effective use of natural resources. Particular attention is paid to the legal grounds, conditions and procedures for restricting, suspending and terminating the right to use natural resources, as well as to the law-enforcement and environmental functions of these measures. The trends in the development of national legislation and the experience of foreign countries are examined from a comparative legal perspective. Based on the findings, the study formulates theoretical and practical conclusions and proposals aimed at improving the legal regulation of natural resource use, ensuring environmental safety, and protecting the rights and legitimate interests of natural resource users.

Keywords. natural resources, right to use natural resources, restriction of rights, suspension of rights, termination of rights, environmental law, natural resource use, legal institution

Tarixan davlat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, ularni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni saqlash maqsadida tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi turli ta'sir choralarini shakllantirib kelgan. Ushbu choralar tizimida tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutlari alohida o‘rin tutadi[1:214]. Mazkur institutlar dastlab tabiiy resurslardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlashning huquqiy vositasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda davlatning ekologik boshqaruv funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi mustaqil huquqiy institut sifatida shakllanib bordi[2:24].

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish instituti ekologiya huquqining mustaqil funksional institutlaridan biri hisoblanadi[3:23]. Mazkur institutning shakllanishi tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik munosabatlarining rivojlanishi, davlatning ekologik siyosati, jamiyatning tabiiy boyliklarga bo‘lgan ehtiyojlari hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning takomillashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu ma'noda mazkur institutni faqat alohida huquqiy cheklovlar yig‘indisi sifatida emas, balki davlatning tabiiy resurslardan barqaror foydalanish siyosati amalga oshirilishini ta'minlovchi kompleks huquqiy mexanizm sifatida baholash lozim. Davlat va huquq nazariyasida har qanday huquq subyektiv huquq sifatida

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mutlaq xususiyatga ega emas[4:267]. Huquqni amalga oshirish doimo boshqa shaxslar huquqlari, jamoat manfaati, davlat xavfsizligi hamda ekologik barqarorlik talablari bilan cheklanadi. Mazkur qonuniyat tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga nisbatan yanada yaqqol namoyon boʻladi. Chunki, tabiiy resurslar iqtisodiy muomala obyekti boʻlishi bilan birga inson hayotining tabiiy asosi, ekologik tizimning tarkibiy qismi va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlovchi umummilliy boylik hisoblanadi[5:252]. Shu sababli mazkur huquqning mazmuni uning cheklanishi, toʻxtatib turilishi yoki bekor qilinishi mumkinligi bilan ham belgilanadi.

Bundan tashqari, davlat suveren sifatida oʻz hududi doirasida qonun chiqarish va yurisdiksiyani amalga oshirish boʻyicha alohida (eksklyuziv) vakolatga ega. Shu munosabat bilan u davlat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, jamoat manfaatlari va milliy manfaatlarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, profilaktik choralarni belgilash hamda ma'muriy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish huquqiga ega. Mazkur suveren vakolat tabiiy resurslardan foydalanish munosabatlariga ham tatbiq etilib, zarur hollarda foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish yoki bekor qilish kabi huquqiy ta'sir choralarini qoʻllash uchun huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi[6:31].

Ilgari surilayotgan yondashuvga koʻra, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish bir-biridan mustaqil huquqiy institutlar emas[7:1032]. Balki yagona huquqiy mexanizmning oʻzaro bogʻliq bosqichlarini tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda ham mazkur institutlarni atrof-muhitni muhofaza qilish va oqilona tabiiy resurslardan foydalanish mexanizmining elementlari sifatida baholash tendensiyasi mavjud. Xususan, U. Ayubov ularni yagona ekologik-huquqiy mexanizm tarkibidagi oʻzaro bogʻliq huquqiy vositalar sifatida talqin qilib, ularning tartibga soluvchi va sanksiya qoʻllovchi vazifalarini asoslab bergan[8:23]. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda ushbu yondashuv yanada rivojlantirilib, cheklash huquqni toʻliq tugatmasdan uni amalga oshirish hajmi yoki usuliga ta'sir koʻrsatuvchi dastlabki bosqich, toʻxtatib turish huquqni muayyan muddatga amalga oshirish imkoniyatini vaqtincha istisno etuvchi keyingi bosqich, bekor qilish esa huquqiy munosabatni butunlay tugatuvchi yakuniy bosqich sifatida baholanadi. Shu bois ushbu institutlarni alohida-alohida emas, balki huquqiy ta'sirning evolyutsion va funksional jihatdan uzviy bogʻlangan yagona tizimi sifatida tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash institutining ildizlari davlatchilik tarixi bilan bir vaqtda shakllangan boʻlsa-da, uning zamonaviy huquqiy modeli XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi[9:28]. Ilk bosqichlarda cheklovlar asosan davlat mulkini muhofaza qilish va iqtisodiy rejalashtirish manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilgan. Keyinchalik ularning asosiy vazifasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslarning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qayta tiklanish imkoniyatini saqlashga qaratildi. Davlat suveren subyekt sifatida ommaviy manfaatlarni himoya qilish maqsadida yer qa'ridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni ma'muriy-huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solishda diskretsion vakolatlarini amalga oshiradi. Bunda ma'muriy huquq normalarining asosiy vazifasi, eng avvalo, jamoat (ommaviy) manfaatlarini ta'minlashdan iborat[10:16]. Bu esa mazkur institutning huquqiy tabiati iqtisodiy munosabatlardan ekologik munosabatlarga tomon evolyutsiya qilganligini koʻrsatadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish instituti mustaqil huquqiy institut sifatida bir vaqtning oʻzida emas, balki davlatning tabiiy boyliklar ustidan boshqaruv funksiyalari rivojlanishi bilan bosqichma-bosqich shakllangan. Dastlab huquqiy tartibga solish asosan tabiiy resurslarni izlash va ulardan foydalanish tartibini belgilashga qaratilgan boʻlib, foydalanish huquqini cheklash yoki bekor qilish mexanizmlari deyarli nazarda tutilmagan. Keyinchalik davlat manfaatlarini, ekologik xavfsizlikni hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash zarurati mazkur institutning shakllanishiga asos boʻlgan[11:200].

Muallifning fikricha, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutining tarixiy rivojlanishini ilmiy jihatdan uchta mustaqil bosqichga ajratish mumkin. *Birinchi bosqich* – davlatning mutlaq ma'muriy nazorati ustuvor boʻlgan sovet huquqiy modeli[12:657], *ikkinchi bosqich* – mustaqillikning dastlabki yillarida ekologik munosabatlarni huquqiy transformatsiya qilish davri, *uchinchi bosqich* – barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va huquqiy davlat prinsiplariga asoslangan zamonaviy ekologik-huquqiy modelning shakllanish bosqichidir[13:24]. Nazarimizda, aynan mazkur davriylashtirish tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutining evolyutsiyasini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu paragrafda institutning shakllanishi va rivojlanishi mazkur bosqichlar doirasida izchil tahlil qilinadi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutini toʻgʻri anglash uchun uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Huquqiy institutlarning shakllanishi muayyan davlatning siyosiy tuzumi, iqtisodiy munosabatlari va huquqiy siyosatining evolyutsiyasi bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Shu nuqtayi nazardan mazkur institutning ilk huquqiy modeli sovet huquq tizimi doirasida shakllangan boʻlib, uning mazmuni sotsialistik mulk konsepsiyasi va davlatning tabiiy resurslar ustidan mutlaq hukmronligi gʻoyasi ta'sirida rivojlangan. Sovet huquq nazariyasida yer, suv, oʻrmon, yer qa'ri va boshqa tabiiy resurslar fuqarolik muomalasining mustaqil obyekti sifatida emas, balki davlat mulkining ajralmas qismi sifatida baholangan[14:288]. Shu bois tabiiy resurslardan foydalanish huquqi xususiy huquq emas, balki davlat tomonidan muayyan maqsad uchun vaqtincha beriladigan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

maxsus vakolat sifatida tushunilgan. Bunday yondashuv sharoitida huquq egasining manfaatlari emas, davlat rejasi va xalq xoʻjaligi ehtiyojlari ustuvor hisoblangan. Natijada foydalanish huquqining mavjudligi ham, uning cheklanishi yoki bekor qilinishi ham davlatning bir tomonlama irodasi bilan belgilangan. Sovet davrida qabul qilingan yer, suv va oʻrmon qonunchiligi tahlili shuni koʻrsatadiki, huquqni cheklash instituti mustaqil huquqiy institut sifatida emas, balki davlat boshqaruvining ma'muriy vositasi sifatida qoʻllangan[15:267]. Masalan, yer uchastkasidan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanmaslik, davlat rejalarini bajarmaslik, yerdan samarasiz foydalanish yoki ekologik talablarni buzish holatlarida davlat organlari yer uchastkasini qaytarib olish yoki foydalanish huquqini bekor qilish vakolatiga ega boʻlgan. Mazkur yondashuv muayyan darajada amaldagi Oʻzbekiston Yer kodeksida ham saqlanib qolgan. Jumladan, kodeksda yerdan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanish, yerlarni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash yer toʻgʻrisidagi qonunchilikning asosiy prinsiplari sifatida belgilangan. Shu bilan birga, davlat organlariga yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vakolati berilgan. Bu esa shakllangan ma'muriy-huquqiy yondashuv zamonaviy qonunchilikda ham saqlangan boʻlsa-da, endilikda u mulk huquqini himoya qilish, ekologik xavfsizlik va qonuniylik prinsiplari bilan uygʻunlashtirilgan holda qoʻllanilishini koʻrsatadi[16].

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklashning huquqiy asoslari iqtisodiy rejalashtirish mexanizmi bilan uzviy bogʻlangan edi. Tabiiy resurslar mustaqil iqtisodiy boylik sifatida emas, balki yagona davlat mulkining bir qismi sifatida qaralganligi sababli ulardan foydalanish rejali iqtisodiyot ehtiyojlariga boʻysundirilgan[17:224]. Shu munosabat bilan huquqni cheklash yoki bekor qilishning asosiy mezoni ekologik xavfsizlik emas, balki davlat rejalarining bajarilishi hisoblangan. Bu holat ekologik munosabatlarning iqtisodiy munosabatlarga toʻliq boʻysundirilganligini koʻrsatadi.

Ayni paytda sovet qonunchiligida tabiatni muhofaza qilishga oid ayrim normalar ham mavjud boʻlgan. Xususan, yerlarni muhofaza qilish, oʻrmonlarni tiklash, suvlarni ifloslantirmaslik kabi talablar belgilangan[18:1164]. Biroq mazkur normalar huquqni cheklash institutining mustaqil ekologik funksiyasini emas, balki davlat mulkini saqlash vazifasini bajargan. Muallifning fikricha, huquq tizimining asosiy xususiyati shundaki, unda tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish huquqiy institutlari mavjud boʻlgan boʻlsa-da, ular huquqiy emas, asosan ma'muriy institut sifatida shakllangan. Boshqacha aytganda, mazkur mexanizmlar huquq subyektining manfaatlarini muhofaza qilish uchun emas, balki davlatning tabiiy resurslar ustidan mutlaq nazoratini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Fikrimizcha, sovet davri huquqiy modelida cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish tushunchalari o‘rtasida aniq yuridik chegara belgilanmagan. Amaliyotda ushbu choralar bir xil huquqiy oqibatga ega bo‘lgan ma'muriy ta'sir chorasi sifatida qo‘llangan. Hozirgi ekologik qonunchilikda esa mazkur institutlarning har biri mustaqil huquqiy asos, tartib va protsessual kafolatlarga ega bo‘lishi lozim. Shu jihatdan, sovet huquq tizimida mazkur institutning shakllanganligi uning zamonaviy huquqiy modeliga asos bo‘lgan bo‘lsa-da, uning konseptual mazmuni mustaqil O‘zbekiston qonunchiligida tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Sovet davri tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash institutining shakllanishida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Biroq mazkur institutning huquqiy tabiati ma'muriy boshqaruv modeli ta'sirida shakllanganligi sababli unda inson huquqlari, ekologik adolat, protsessual kafolatlar va mutanosiblik prinsiplari yetarlicha rivojlanmagan.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishishi mamlakatning siyosiy va iqtisodiy tizimidagina emas, balki huquqiy tizimida ham tub institutsional o‘zgarishlarni boshlab berdi[19]. Mazkur davr tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan transformatsiya bosqichi hisoblanadi. Agar sovet huquq tizimida mazkur institut asosan davlatning ma'muriy hukmronligini ta'minlash vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa, mustaqillikning dastlabki yillarida u huquqiy davlat, qonuniylik va ekologik xavfsizlik prinsiplariga mos ravishda qayta shakllana boshladi. Shu bois mazkur davrni institut evolyutsiyasida sifat jihatidan yangi bosqich sifatida baholash mumkin[20].

O‘tish davrining asosiy xususiyati shunda ediki, bir tomondan, sovet huquq tizimidan meros bo‘lib qolgan davlat mulki konsepsiyasi va ma'muriy boshqaruv mexanizmlari hali amalda saqlanib qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, xususiy mulkchilik munosabatlarining rivojlanishi va inson huquqlarini e'tirof etishga qaratilgan yangi huquqiy siyosat shakllana boshladi. Bu esa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining huquqiy tabiatini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. Endi mazkur huquq davlat tomonidan istalgan vaqtda qaytarib olinadigan ma'muriy vakolat emas, balki qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqiy munosabat sifatida talqin etila boshladi.

Fikrimizcha, aynan 1990-yillar o‘tish davri tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining huquqiy maqsadini o‘zgartirgan davr hisoblanadi. 1992-yil Konstitutsiyasining eng muhim yutug‘i tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash institutini hokimiyat vakolati sifatida emas, balki konstitutsiyaviy prinsiplarga bo‘ysunuvchi huquqiy mexanizm sifatida shakllantirganligi bilan izohlanadi. Aynan shu jihat mustaqil O‘zbekiston ekologiya huquqining sovet huquq tizimidan prinsipial farqini belgilaydi. Konstitutsiya tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklashning aniq asoslari va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tartibini belgilab bermagan.

Bu vazifa keyinchalik maxsus qonunchilik – Yer kodeksi, Suv kodeksi, “Oʻrmon toʻgʻrisida”gi, “Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi, “Yer qa'ri toʻgʻrisida”gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali rivojlantirildi. Tahlil shuni koʻrsatadiki, “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonunda nazarda tutilgan tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilishning umumiy huquqiy modeli keyinchalik sohaviy qonunchilikda ancha mukammallashtirildi. Xususan, Yer kodeksining 36, 42 va 85-moddalarida yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni bekor qilish asoslari, huquqlarni cheklash shartlari hamda davlat nazorati organlarining ushbu masaladagi vakolatlari batafsil belgilangan. “Atmosfera havosini muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonunning 13-moddasida esa atmosfera havosiga zararli ta'sir koʻrsatuvchi faoliyatni avval cheklash, keyin toʻxtatib turish va zararli ta'sir bartaraf etilmagan hollarda tugatishning bosqichma-bosqich huquqiy mexanizmi nazarda tutilgan. Xuddi shu yondashuv “Oʻrmon toʻgʻrisida”gi qonunlarda aksini topgan. Bu esa qonun chiqaruvchi tabiiy resurslardan foydalanish huquqini absolyut huquq sifatida emas, balki ekologik xavfsizlik va jamoat manfaatlariga bogʻliq boʻlgan shartli huquq sifatida huquqiy tartibga solganligini koʻrsatadi.

Nazarimizda, 1990-yillar oʻtish davrining ilmiy ahamiyati shundaki, aynan shu bosqichda tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutining keyingi rivojlanish vektori belgilandi. Agar mazkur davrda mustaxkam konstitutsiyaviy asoslar yaratilmaganida, keyinchalik qabul qilingan maxsus qonunchiligida cheklash institutlarini huquqiy davlat va barqaror rivojlanish talablari asosida shakllantirish imkoniyati mavjud boʻlmas edi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur bosqichni institut tarixidagi oddiy huquqiy islohot emas. Balki uning mazmun-mohiyatini tubdan oʻzgartirgan transformatsiya davri sifatida baholash lozim. Mustaqillikning dastlabki yillari tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutining huquqiy tabiatini qayta belgilab berdi. Bu bosqichda davlatning ma'muriy ustunligiga asoslangan yondashuvdan huquqiy davlat, ekologik xavfsizlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanish prinsiplariga asoslangan yangi huquqiy modelga oʻtish boshlandi.

Mustaqillikning dastlabki oʻn yilligini tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutining huquqiy institutsionallashuv bosqichi sifatida baholash mumkin. Mustaqil Oʻzbekiston qonunchiligi tabiiy resurslardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishda sohaviy differensiatsiya prinsipini qabul qildi. Natijada yer, suv, oʻrmon, yer qa'ridan foydalanish va boshqa tabiiy resurslarga oid munosabatlar mustaqil huquqiy institutlar orqali tartibga solina boshladi. Bir

qarashda mazkur yondashuv huquqiy tartibga solishning texnik xususiyatidek koʻrinsa-da, aslida u cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutlarining mazmuniga jiddiy ta'sir koʻrsatdi. Chunki har bir tabiiy resursning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari turlicha boʻlganligi sababli, ulardan foydalanish huquqini cheklash asoslari ham bir xil boʻlishi mumkin emas edi. Mazkur jarayonda 1992-yilda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonun Oʻzbekistonda mustaqil ekologik qonunchilik tizimining huquqiy poydevorini shakllantirdi. Qonun nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishning umumiy prinsiplarini belgilab berdi, balki davlat ekologik siyosatining institutsional mexanizmlarini ham mustahkamladi. Xususan, unda Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari aniq belgilanib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda ekologik vaziyatlarning oldini olish, ekologik ta'limni rivojlantirish hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini belgilash kabi muhim vazifalar davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida mustahkamlandi. Shu bilan birga, qonunning 39 va 48-moddalarida atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatni cheklash, toʻxtatib turish yoki tugatishning huquqiy asoslari belgilanib, ekologiya huquqibuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlar yaratildi[21]. Bu esa keyinchalik tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatib turish va bekor qilish institutining rivojlanishi uchun muhim normativ zamin boʻlib xizmat qildi. Bu esa cheklash institutining huquqiy tabiatini tubdan oʻzgartirdi. Fikrimizcha, aynan mazkur qonun qabul qilinishi bilan cheklash institutining asosiy vazifasi davlat mulkini muhofaza qilishdan ekologik manfaatlarni muhofaza qilishga qarab oʻzgardi. Sovet davrida huquqni cheklash davlat mulkini saqlash vositasi boʻlgan boʻlsa, mustaqillikdan keyin u ekologik xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy vositasi sifatida shakllana boshladi. Mazkur oʻzgarish tashqi jihatdan katta emasdek koʻrinsa-da, institutning huquqiy tabiati nuqtayi nazaridan prinsipial ahamiyatga ega.

1998-yilda qabul qilingan Yer kodeksi tabiiy resurslardan, xususan yer uchastkalaridan foydalanish huquqini cheklash, toʻxtatish va bekor qilish institutining huquqiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Avvalgi qonunchilikdan farqli ravishda, kodeksda yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni bekor qilishning moddiy-huquqiy asoslari, protsessual tartibi, vakolatli organlar hamda sud nazoratining huquqiy mexanizmlari tizimli ravishda mustahkamlandi. Bu esa mazkur institutning alohida huquqiy institut sifatida shakllanishi va keyingi islohotlar uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Xususan, Yer kodeksining 36-moddasida yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni bekor qilishning huquqiy asoslari, 38-moddasida esa yer toʻgʻrisidagi qonunchilik buzilganda yer uchastkasini olib qoʻyishning protsessual tartibi belgilangan. Shuningdek, kodeksda yer huquqlarini cheklash, toʻxtatish va bekor

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilish masalalari davlat nazorati hamda sud himoyasi bilan bog‘langan yaxlit huquqiy mexanizm sifatida ifoda etilgan[22]. Shu bilan birga, Yer kodeksi tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish tushunchalari hali ham to‘liq institutsional ajratilmagan edi.

Muallifning fikricha, mustaqillikning dastlabki bosqichida qabul qilingan qonunchilikning asosiy yutug‘i cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish choralarini huquqiy asoslar bilan bog‘laganligida emas, balki ularni huquqiy davlat prinsiplari doirasida qo‘llash zarurligini belgilaganligidadir. Endi mazkur choralarni qo‘llash davlat organining mutlaq diskretsiyasi emas, balki qonun bilan belgilangan shartlar mavjud bo‘lgandagina amalga oshirilishi lozim edi. Bu esa huquqiy ishonch, qonuniylik va mutanosiblik prinsiplarining ekologik qonunchilikka kirib kelishini anglatadi.

Shu bilan birga, ushbu bosqichda qabul qilingan qonunchilikda ayrim nazariy va amaliy muammolar ham saqlanib qoldi. Xususan, cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish tushunchalarining huquqiy chegaralari aniq belgilanmaganligi, ularni qo‘llash asoslarining turli qonunlarda bir xil emasligi hamda protsessual kafolatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi keyinchalik mazkur institutni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu holat 2000-yillardan boshlab ekologik qonunchilikni modernizatsiya qilish jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bizning nazarimizda, 1992–2000-yillar davrini tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining huquqiy institutsionallashuv bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Mazkur bosqichning asosiy xususiyati shundaki, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash endi davlatning nazorat funksiyasini amalga oshirish vositasi sifatida emas. Balki ekologik xavflarni boshqarish, tabiiy resurslarni saqlash va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizm sifatida shakllandi. Bu o‘zgarish ekologiya huquqining klassik ma'muriy modeliga nisbatan mutlaqo yangi huquqiy paradigmani yuzaga keltirdi.

Zamonaviy ekologiya huquqning mazkur institutga ko‘rsatgan eng muhim ta'siri barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog‘liqdir. 1992-yilgi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasida barqaror rivojlanish iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy adolat va atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan universal huquqiy tamoyil sifatida shakllantirildi. Muallifning fikricha, aynan barqaror rivojlanish konsepsiyasi cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutlarining huquqiy mohiyatini qayta belgiladi. Agar ilgarigi bosqichlarda mazkur institutlar huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin qo‘llanadigan reaktiv choralar sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy bosqichda ular ekologik xavflarning oldini olishga qaratilgan preventiv huquqiy mexanizm sifatida shakllanmoqda.

XXI asrga kelib ekologiya huquqning rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining huquqiy tabiatini qayta ko‘rib chiqishni

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

talab qildi. Bu jarayon alohida davlatlarning milliy huquq tizimlarida qabul qilingan qonunlar ta'sirida emas, balki xalqaro ekologiya huquqining fundamental tamoyillari, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy standartlar hamda xalqaro sud amaliyotida shakllangan huquqiy doktrinalar ta'sirida yuz berdi. Shu jihatdan mazkur institutning zamonaviy rivojlanishini tushunish uchun uni faqat milliy qonunchilik doirasida emas, balki xalqaro ekologiya huquqining umumiy evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ekologiya huquqining eng muhim konsepsiyalaridan biri “ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipidir[23]. Ushbu prinsip ilk bor 1972-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda shakllantirildi. Keyinchalik u 1992-yilgi Rio deklaratsiyasining 16-prinsipida xalqaro ekologiya huquqining umume'tirof etilgan tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etildi[24]. Mazkur prinsipga muvofiq, atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxs ekologik zararni bartaraf etish va uning iqtisodiy oqibatlarini qoplash uchun mas'ul hisoblanadi. Bir qarashda mazkur prinsip ekologik javobgarlik instituti bilan bog‘liqdek tuyuladi. Biroq uning huquqiy ahamiyati bundan ancha kengdir. Zamonaviy ekologiya huquqi nazariyasida Polluter Pays Principle faqat zararni qoplash mexanizmi emas, balki davlatning tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, litsenziyalarni qayta ko‘rib chiqish, ruxsatnomalarni vaqtincha to‘xtatib turish yoki bekor qilish kabi ma'muriy-huquqiy vositalarini qo‘llashning iqtisodiy-huquqiy asoslaridan biri sifatida ham qaraladi.

Germaniya, Fransiya va Niderlandiya kabi davlatlarda mazkur prinsip asosida tabiiy resurslardan foydalanish huquqini amalga oshirish ekologik standartlarga qat'iy rioya qilish bilan bog‘langan. Agar tabiatdan foydalanuvchi subyekt belgilangan ekologik talablarni buzsa, davlat organlari faqat zararni undirish bilan cheklanmaydi, balki litsenziyalarni vaqtincha to‘xtatib turish, faoliyatni cheklash yoki to‘liq bekor qilish huquqiga ham ega bo‘ladi. Bu holat ekologiya huquqibuzarlik uchun javobgarlik va tabiiy resurslardan foydalanish huquqining huquqiy taqdiri o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va Norvegiya kabi davlatlarda barqaror foydalanish konsepsiyasi litsenziyalash tizimi bilan uzviy bog‘langan. Masalan, suv resurslari, o‘rmonlar yoki baliqchilik sohasida litsenziyalar monitoring natijalariga qarab qayta ko‘rib chiqilishi, vaqtincha to‘xtatilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu holat huquq egasining aybi mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, resursning ekologik holatini birinchi o‘ringa qo‘yadi[25].

Muallifning fikricha, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash institutining huquqiy maqsadini o‘zgartirdi. Endi mazkur institutning asosiy vazifasi huquqbuzarlikka huquqiy reaksiya bildirish emas, balki tabiiy resursning ekologik sifatini saqlash va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi. Shu sababli

cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish choralarini qo‘llashda davlat organlari nafaqat huquqiy, balki ekologik, iqtisodiy va ilmiy mezonlarni ham hisobga olishi lozim. Bizning nazarimizcha, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash institutining huquqiy tabiatini tubdan o‘zgartirdi. Shu jihatdan, milliy qonunchilikni takomillashtirishda mazkur xalqaro doktrinalarni faqat deklarativ tamoyil sifatida emas, balki tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilishning huquqiy asoslari hamda qo‘llash mezonlarini belgilashda bevosita normativ yo‘naltiruvchi omil sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ekologiya huquqning yana bir muhim xususiyati inson huquqlari va ekologiya huquqlarning o‘zaro yaqinlashuvidir. O‘zbekiston Ekologiya kodeksi (loyihasi)ning [26] qabul qilinishi milliy ekologiyaning rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bermoqda. Kodeks (loyihasi) tabiiy resurslardan foydalanish munosabatlarini tarmoqlar kesimida emas, balki yagona ekologik siyosat nuqtayi nazaridan tartibga solishga qaratilgan. Bu esa cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish institutining tabiatiga ham ta'sir ko‘rsatdi. Bizning fikrimizcha, Ekologiya kodeksi(loyihasi)ning eng muhim ahamiyati shundaki, u cheklash institutini huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin qo‘llaniladigan sanksiya sifatida emas, balki ekologik xavflarni oldindan bartaraf etishga xizmat qiluvchi profilaktik mexanizm sifatida rivojlantirishga asos yaratdi. Shu bilan birga, ekologik baholash, monitoring, ekologik nazorat, raqamlashtirish va tavakkalchilikka asoslangan boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi cheklash choralarini qo‘llashning ilmiy asoslanganini ta'minlashga xizmat qiladi.

2023–2026-yillarda amalga oshirilgan islohotlar ham mazkur tendensiyani davom ettirdi. Davlat boshqaruvini raqamlashtirish, ekologik nazoratning zamonaviy shakllarini joriy etish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qayta ko‘rib chiqish hamda ekologik ekspertiza tizimini takomillashtirish tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash institutining samaradorligini oshirishga qaratildi. Biroq amalda ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish tushunchalarining yagona huquqiy definitsiyasi mavjud emasligi, ularni qo‘llash mezonlarining barcha tabiiy resurslar bo‘yicha bir xil darajada uyg‘unlashtirilmaganligi hamda mutanosiblik prinsipining amaliyotda doim ham to‘liq ta'minlanmayotganligi mazkur institutni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Fikrimizcha, XXI asrda tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilish instituti uchinchi evolyutsion bosqichga o‘tdi. Bu bosqichning asosiy xususiyati shundaki, mazkur institut davlatning ma'muriy vakolatlarini amalga oshirish vositasi emas, balki ekologik xavflarni boshqarish, jamoat ishonchini ta'minlash, insonning ekologiya huquqilarini muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi kompleks huquqiy mexanizm sifatida shakllandi. Shu

munosabat bilan dissertatsiyada quyidagi nazariy xulosa ilgari suriladi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va bekor qilishning zamonaviy huquqiy modeli to‘rtta o‘zaro bog‘liq doktrinal asos – barqaror rivojlanish, ehtiyotkorlik prinsipi, ifloslantiruvchi to‘laydi prinsipi va jamoat ishonchi doktrinasining integratsiyasiga tayanish orqali shakllanadi. Mazkur yondashuv milliy qonunchilikni takomillashtirishda mazkur institutni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki ekologik qadriyatlarni amalga oshirishning kompleks huquqiy mexanizmi sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холмўминов Ж.Т. Экология ва ҳаёт: қонунчиликни такомиллаштириш масалалари. Т.: ЎзР ФҲИ, 2010. 214 б.
2. Дудиков М.В. Прекращение права пользования недрами. Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2004. Б. 24.
3. Аюбов У.Т. Лишение, ограничение и приостановление права природопользования. дис.... канд. юрид. наук: 12.00.06. – Ташкент: Ташкентский государственный юридический институт, 1999. – 23
4. Аҳмедшаева М. Ҳозирги замон давлати ва ҳуқуқи назарияси муаммолари. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. – Б. 267.
5. Bosselmann K. The Principle of Sustainability: Transforming Law and Governance. – 2nd ed. – London, 2017. – 252 p.
6. Алексеев С.С. Государство и право. М., 1993. Б. 31.
7. Sands P., Peel J., Fabra A., Mackenzie R. Principles of International Environmental Law. 4th ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 1032 p.
8. Аюбов У.Т. Лишение, ограничение и приостановление права природопользования. автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.06. – Ташкент: Ташкентский государственный юридический институт, 1999. – 23
9. Birnie, P., Boyle, A., Redgwell, C. International Law and the Environment. 4th ed. Oxford: Oxford University Press, 2021. p.28.
10. Василевская Д.В. Правовое регулирование отношений недропользования в Российской Федерации и зарубежных странах: теория и практика. Монография. – М.: ООО Издательство «Нестор Академик», 2007. С. 16.
11. Миронов Н.Ю. Правовое регулирование досрочного прекращения, приостановления и ограничения права пользования недрами: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.06. – Москва: Российский государственный университет нефти и газа имени И.М. Губкина, 2015. – 200 с
12. Усмонов М.Б.Экология ҳуқуқи.Дарслик.: Ҳарбий теника институти,2018 -657 бет.
13. Экология ҳуқуқи.: Дарслик. Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2024. 24- бет.
14. Краснов Н.И. Природоресурсное право СССР. – Москва: Юридическая литература, 1984. – 288 с.

15. Турубинер А.М. Право государственной собственности на землю в Советском Союзе. – Москва, 1958. – 267
16. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси: Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрелдаги 598-I-қонуни (2026 йил 17 март ҳолатига). – 1-модда, 2-модда, 4-модда.
17. Мухитдинов Н.Б. Правовые проблемы пользования природными ресурсами. – Ташкент: Фан, 1985. – 224 с.
18. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. — Т.: Фан, 1990. Стремоухов Н.П. кузатишлари (1874 й.) ҳақида: 197–199-б. Шунингдек: Россия-Бухоро сув муносабатлари тарихи // Туркистон маъмурияти ҳужжатлари. ЎзРМА, ф. И-1, оп. 27, д. 1164.
19. Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида.Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 31 августдаги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1991. – № 11. – 268-модда.
20. Аюбов У.Т. Лишение, ограничение и приостановление права природопользования: автореф. дис. канд. юрид. наук: 12.00.06. – Ташкент: Ташкентский государственный юридический институт, 1999. – 23
21. Ўзбекистон Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни. 1992 йил 9 декабрь, №754-XII (2024 йил 29 августдаги 951-қонун таҳририда).//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/docs/107115
22. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрелдаги 598-I-сон Қонуни (амалдаги таҳрири). – Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/docs/152653
23. Utayev U.Ch. Prospects for the development of the Environmental Responsibility System. // “American journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. 11.11.2025. №3-R.371-376.
24. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. Adopted at the United Nations Conference on Environment and Development, Rio de Janeiro, 3–14 June 1992. – New York: United Nations, 1992. – 5 p.
25. CD Review of Fisheries 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 149 p. DOI: 10.1787/560cd8fc-en.
26. Ўзбекистонда ягона Экология кодекси лойиҳаси ишлаб чиқилди. Ушбу ҳужжат 25 бўлим, 131 боб ва 665 моддадан иборат бўлиб, мамлакатдаги тарқоқ экологик қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, иқлим ўзгаришига қарши курашиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш меъёрларини белгилайди.